

G'AFUR G'ULOM ASARLARIDA O'XSHATISH VOSITALARINING LINGVISTIK
XUSUSIYATLARI ("SHUM BOLA" QISSASI MISOLIDA)

Qarshiyeva Sevinch

Termiz davlat universiteti amaliy filologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1527958>

Annotatsiya. Maqolada badiiy asar matnida muhimahamiyatga ega bo'lgan badiiy o'xshatishlarning lisoniy tahlili haqida fikr yuritiladi. O'zbekning mashhur yozuvchilaridan bo'lmish G'afur G'ulom o'zining asarlarida o'xshatishlardan juda keng foydalangan. Quyida G'afur G'ulom asarlarida qo'llangan o'xshatishlar va ularning leksik, semantic hamda uslubiy xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: O'xshatishlar, an'anaviy o'xshatishlar, tashbeh, o'xshatish obyekti va subyekti.

**LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF SIMILES IN THE WORKS OF GAFUR
GHULOM (ON THE EXAMPLE OF THE STORY "SHUM BOLA")**

Abstract. The article discusses the linguistic analysis of artistic similes, which are important in the text of a work of art. One of the famous Uzbek writers, Gafur Ghulom, used similes very widely in his works. Below we will analyze the similes used in Gafur Ghulom's works and their lexical, semantic and stylistic characteristics.

Keywords: Similes, traditional similes, allegory, object and subject of simile.

**ЯЗЫКОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СРАВНЕНИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ГАФУРА
ГУЛАМА (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА «ШУМ БОЛА»)**

Аннотация. В статье рассматривается лингвистический анализ художественных сравнений, имеющих важное значение в тексте художественного произведения. Гафур Гулом, один из известных узбекских писателей, широко использовал сравнения в своих произведениях. Ниже мы проанализируем сравнения, используемые в произведениях Гафура Гулама, а также их лексические, семантические и стилистические характеристики.

Ключевые слова: сравнения, традиционные сравнения, метафора, объект и субъект сравнения.

Atoqli o'zbek yozuvchisi, shoiri va "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi G'afur G'ulom ijod olamiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asarlarida so'zdan naqadar mohirona, oqilona

foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. O'rnida qo'llangan so'zlar asarning muvaffaqiyatga erishib, kitobxonlar ko'nglidan joy olishida muhim ahamiyat kasb etadi. G'afur G'ulom ana shunday kitobxonlar muhabbatiga sazovor bo'lgan bir qancha asarlar yaratgan so'z ustasidir. G'afur G'ulom asarlari ustida juda ko'p mehnat qilgan. Adibning tilida kitobxонни maftun qiladigan birinchi xislat – tabiiylikdir. G'.G'ulom asarlaridagi o'xshatishlar o'quvchi hayratini oshiradi.

Dunyoni bilishning eng qadimiy usuli sifatida e'tirof etilgan o'xshatishlar, nutqimizning ajralmas bir bo'lagidir. O'xshatishlarda muayyan xalqning taffakkur tarsi, urf-odati, madaniyati, so'z boyligi o'z aksini topadi. Har bir tilning, har bir davrning o'ziga xos o'xshatishlari mavjud.

O'xshatish tasviriy ifodaning eng qadimgi shakllaridan biri bo'lib, Aristotel poeziyani o'xshatish san'ati deb ataydi. Uning fikricha, inson boshqa mavjudotlardan o'xshatish qobiliyati borligi bilan ajralib turadi, hatto u dastlabki bilimlarni aynan o'xshatishlardan oladi va bu jarayon samaralari barchaga huzur bag'ishlaydi. O'xshatish o'zbek mumtoz adabiyotshunosligining an'anaviy vositalaridan biri bo'lib, XV asr badiiy san'atlar ilmining donishmandi Atoulloh Husayniy uni shunday ta'riflagan: "Tashbeh vasfta bir nimani bir nimaga o'xhatmoqdin iborattur. Anikim, tashbeh qilurlar, mushabbah bix derlar va ul vasfini vajx-ishibx (o'xshatish tomoni) derlar.

O'zbek tilshunosligida o'xshatishlar haqida tadqiqotni boshlab bergen olim M.Mukarramov hisoblanadi.Olim bu san'at turini uch asosdan iborat ekanligi,o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz o'xshatishning sharti ekanligini ta'kidlaydi. O'xshatish vositasi asos sifatida hisobga olinmaydi. O'xshatishlar haqida maxsus tadqiqot olib brogan D.Xudoyberanova o'xshatishlar 4 komponentdan iborat ekanligini, ayrim o'xshatish konstruksiylarida bu komponentlarning biri uslub talabi bilan ifodalanmay qolishini ko'rsatadi.Olima o'xshatish asoslarining bu xilda birining ifodalanmasligini uning ma'nosini boshqa qismlar orqali anglanishi bilan izohlaydi. O'xshatishlar quyidagi qo'shimchalar orqali hosil qilinadi:

-day qo'shimchasi. O'zbek tilshunosligida va badiiy nutqda o'xshatish hosil qiluvchi eng sermahsul vositadir. Bu qo'shimcha yordamida hosil qilingan o'xshatishlar oddiyligi bilan ajralib turadi:ohuday hurkak,buloqdek sof.

-O'xshatishning badiiy funksiyasi nutqning badiiy obrazliligin oshirish, shu orqali kishida estetik ta'sir uyg'otishdir.

Biz quyida atoqli adib G'afur G'ulomning barchamizga tanish “Shum bola” qissasida qo’llanilgan o’xshatishlarga misollar keltiramiz va ularning leksik-semantik va lingvokognitiv tomonlarini tahlil qilamiz:

“Agar u badbaxt, imildoq xotin o’t yoqishda yana davom etaversa, tandirda kabobday jizg’anak bo’lar edim”. (89-bet)

Bu gapda yozuvchi o’xshatishni hosil qilishda –day (-dek) qo’shimchasini qo’llagan bo’lib, o’xshovchi predmet – kabob, o’xhatilayotgan predmet shum bola (bu yerda ism keltirilmagan ammo mazmundan bilib olsa bo’ladi); -day o’xshatish vositasi.

“Men sekin –sekin go’yo darchaning pardasini tortganday, loytuvoqni ustimga yopdim”. 90-bet) Bu gapda qissadagi shu vaziyatni yodga oladigan bo’lsak, shum bola domlaning xo’kizini emas Buxoroyi sharifdan 3 tilloga sotib olgan eshagining bo’g’ziga pichoq tortib yuborganidan so’ng, bir oshxonaningga mo’risiga yiqilib tushgan holatidan keying voqealar.

Shum bola tandirning ichida qolib ketgan uy egasi tandirning ustiga o’tirib olgan edi, undan oldin shum bola ular sezib qolmasin deb loytuvoqni ustiga yopib olgan edi. –day – og’zaki o’xshatish vositasi.

“Nimasi yetishmaydi, fuqarosi bo’lsa xom go’shtday itoatli, mirshab-u poleskalar qilichday”. (134-bet)

Bu gapda fuqaroni xom go’shtga, mirshablarni qilichga o’xshatmoqda, negaki, xom go’sht to’g’rashga oson qiyinchilik tug’dirmaydi ya’ni fuqaro ham faqat podshohning buyrug’ini kutyapti, nima desang shuni bajaradi degan ma’noda, mirshablar esa qilichday o’tkir ,har narsani tanasidan judo qilishga shay.

“Har ikkovimizning yuragimiz go’yo dard tekkan terak yaprog’iday qaltirab turibdi”

Bu gapda shum bola va Omonning qo’rqgan holati ya’ni kasallanga terak yaprog’iga qiyoslanmoqda bargning uzilib tushishiga sanoqli daqiqlar qolgan.

REFERENCES

1. Mahmudov.N “O’xshatishlarning til va nutqdagi o’rni”\Til tilsimi tadqiqi. Toshkent; Mumtoz so’z,2017
2. Mukarramov.M. “O’zbek tilida o’xshatishlar” T. Fan,1976
3. Umurqulov.B “Badiiy adabiyotda so’z” Toshkent: Fan 1993
4. 4.B.Umurqulov ‘‘Badiiy asar jozibasi’’ “Muharrir ‘nashriyoti Toshkent 2021
5. G’afur G’ulom “Shum bola” qissalar va hikoyalar to’plami Toshkent 2016.